

15-dars. Xona qo'shiluvchilari yig'indisi



1. O'qing. Matnda uchragan **sonlarning xonalarini** ayting.

Qarshi shahridagi ko'priq 1583-yilda qurilgan. Uning uzunligi 122 metr, eni esa 8 metr. Ko'priq arkali 12 ta katta tayanchga tayanadi.



Qarshi ko'prigi

Xona qo'shiluvchilari yig'indisi

Xona qo'shiluvchilari yig'indisi deganda sonni uning xona birliklari yig'indisi ko'rinishida yozish tushuniladi.

minglar sinfi			birlar sinfi		
yuz minglar	o'n minglar	minglar	yuzlar	o'nlar	birlar
	3	4	7	9	2
	6	0	3	0	5

$$34\,792 = 30\,000 + 4000 + 700 + 90 + 2$$

$$60\,305 = 60\,000 + 300 + 5$$



2. Sonlarni **xona qo'shiluvchilari yig'indisi** ko'rinishida yozing.

7294

23806

150004

9007

15008

230000



3. **Yig'indilarni** hisoblang. Har bir sonni qanday xona birliklari mavjud emas?

$$\begin{array}{r} + 50000 \\ 40000 \\ 200 \\ 7 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 90000 \\ 4000 \\ 70 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 8000000 \\ 3000000 \\ 9000 \\ 2 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 10000000 \\ 9000000 \\ 300000 \\ 6000 \\ 7 \end{array}$$



4. Ko'rgazmada O'zbekistonning turli viloyatlaridan keltirilgan 145 ta do'ppi namoyish etildi. Ulardan 17 ta erkaklar va 24 ta ayollar do'ppisi Qashqadaryo viloyatidan keltirilgan. O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan nechta do'ppi keltirilgan?



gilam do'ppi



5. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Javoblarga mos harflarni berilgan tartibda joylashtiring va yulduzlarni kuzatish uchun mo'ljallangan rasadxona O'zbekistonning qaysi hududida joylashganini bilib oling.

A $843 - 629$

Y $902 - 778$

M $615 - 178$

D $176 + 276$

K $243 + 192$

N $368 + 93$

437

214

124

452

214

461

214

435



6. Tenglamalarni yeching.

a) $5000 + x + 20 + 3 = 5723$

b) $7000 + 600 + y + 8 = 7698$



7. Jasur kvadrat shaklidagi kichkina ko'zguning perimetri va yuzini o'lchadi va hayron bo'ldi: ko'zguning perimetrini ifodalovchi santimetrlar soni uning yuzini ifodalovchi kvadrat santimetrlar soniga teng ekan. Ushbu ko'zguning tomoni uzunligi nechaga teng?



8. Astronomlar uch kun ichida 186 ta yangi asteroidni aniqladilar. Ular birinchi kun 73 ta, ikkinchi kun esa birinchi kundagiga nisbatan 28 ta kam asteroidni aniqladilar. Astronomlar uchinchi kun nechta asteroidni aniqlashgan?

9. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Javoblarni **xona qo'shiluvchilari yig'indisi** ko'rinishida yozing.

a) $578 + (77 - 49) : 4 \cdot 6$

b) $403 - 56 : 7 : 2$

d) $(35 + 37) : 9 + 297$

e) $300 - (33 + 27 : 3) : 6$

